

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

Energetika va sanoatni axborotlashtirish fakulteti
Menejment kafedrasи



5230200-Menejment ta'lif yo'nalishi talabalari uchun
“Menejment”
fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMA

Namangan-2018

Ushbu uslubiy ko'rsatma "Menejment" ta'lif yo'naliishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda talabalar tomonidan III-semestrda "Menejment" fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Uslubiy ko'satmada kurs ishining bajarish va ximoya qilish uslubi, kurs ishi mavzusini tanlash, mavzuni yoritish jarayonida adabiyotlar bilan ishlash, korxonalardan ma'lumotlarni to'plash, ular bilan ishlash, kurs ishini tarkibi, hajmi va uni tartibga keltirish hamda himoya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: dots. R.Ismatov
ass.O.Ahmedov

Taqrizchilar: i.f.n., dots. A.Yo'dashev
i.f.n., dots. I.Sirojiddinov

Ushbu uslubiy ko'rsatma "Menejment" kafedrasining 20__ yil
"___" ____dagi ___-sonli yig'ilishida muhokama etilgan va
chop etish uchun tavsiya etilgan. Bayonnomma № "___"

Kafedra mudiri **dots.T.Dadaboyev**

Uslubiy ko'rsatma NamMQI Ilmiy-uslubiy kengashining 20__ yil
"___" ____dagi ___-sonli yig'ilishida muhokama etilgan va chop
etishga ruxsat berilgan.

KIRISH

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti tizimida, yangi xo'jalik yuritish mexanizmi sharoitida hamma uchun majburiy, bir xil andozaviy boshqaruv usullari bo'lmaydi. CHunki bozor muhitining favquloddagi o'zgaruvchan vaziyatlari mavjudki, unda faoliyat ko'rsatish yoki xo'jalik yuritish uchun cheklangan miqdordagi uslublarni qo'llash yarmaydi. Bozor iqtisodiyotiga xos tizimda bozor sub'ektlarining faoliyatları va undagi boshqaruv doimiy izlanishlar asosidagi yangiliklarni joriy etishga yo'naltirilgan bo'lmos' i maqsadga muvofiqdir.

“Menejment” fani talabalarda ana shunday muhit bilan bog'liq boshqaruvchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu fan bo'yicha berilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun kurs ishi belgilangan bo'lib, uni bajarilishi talaba tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona boshqaruvini amalga oshirish, uning istiqbol rejasini belgilash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tahlil uslublaridan eng maqbulini qo'llash, mablag' sarflovchi shaxs yoki menejerga ko'p jihatdan bog'liq. Buni bo'lajak menejerlar, ya'ni bizning talabalarimiz juda yaxshi bilishlari shart.

Binobarin, alohida hol uchun boshqaruv usulini qo'llashda uning tavakkalchilik bilan bog'liq jihatlari ham menejer tomonidan o'rganilgan bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, boshqaruvni tashkil etishda tavakkalchilikni qo'llash yoki uni kamaytirish va minimal darajaga tushirish imkoniyatlarini menejer o'zining amaliyotida qo'llay olishi kerak. Qolaversa, korxonaning ichki moliyaviy muammolaridan tortib, tashqi muhit boshqaruvigacha yoki texnologik jarayonlarni tashkil etishdan tortib, xodimlarni boshqarishgacha bo'lgan jabhalarda menejer o'z salohiyatini puxta shakllantirgan bo'lishi kerak.

Ko'rinish turibdiki, yuqoridaagi fikr mulohazalarimizga ko'ra menejment ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar “Menejment” fani bo'yicha yakuniy ish hisobida kurs ishini bajarishlari zarurdir. CHunki bo'lajak menejerlar talabalik davridayoq boshqaruvchilik san'atini puxta egallash, tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarish holatini tahlil qilish va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari bilan bog'liq nazariy jihatdan olgan bilimlarini ko'rsata olishlari kerak.

“Menejment” kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan mazkur fan bo'yicha talabalar bilimini baholashda, ularning nazariy olgan bilimlarini kurs ishini bajarish jarayonida ko'rsata olganligini baholab, tegishli maslahatlar berib boriladi, uni bajarilishidagi yutuq hamda kamchiliklarini talabalarning o'zlariga tushuntirib, ularni bilimini yanada kengayishiga imkon yaratib boriladi.

KURS ISHI MAQSADI VA VAZIFALARI

Kurs ishini maqsadi “Menejment” fanidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, talabalar tomonidan ishlab chiqarishni boshqarish mahoratini

shakllantirish, bozor sharoitida korxonani taktika va strategiyasini belgilash ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Kurs ishini bajarishda talabalar o'quv jarayonida bevosita olgan nazariy bilimlarini va ishlab chiqarish amaliyoti davrida yig'ilgan ma'lumotlarni asos qilib olishlari kerak. Ba'zi bir hollarda, kurs ishi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan umumlashgan ma'lumotlar asosida ham bajarilishi mumkin.

Kurs ishi talabalarning "Menejment" fanidan olgan bilimlarini chuqurlashtirishga, amaliyotni nazariy asoslar bilan bog'liq holda tahliliy fikr uslubiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

KURS ISHINI BAJARISH UCHUN TALABALAR QUYIDAGI TALABLARGA AMAL QILISHLARI KERAK

1. Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga oid qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlai, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlarini o'rghanish.

2. Tanlab olingan kurs ishi mavzusi bo'yicha kerakli adabiyotlarni o'rghanish, ilg'or korxonalarining mazkur yo'nalish bo'yicha olib borayotgan ishlarni o'rghanib chiqish.

3. Ishlab chiqarish boshqaruv tizimining tarkibini ifodalovchi omillar, boshqaruv qarorlarini baholash. SHuning uchun, talabalar qo'yilgan savollarga chuqur tahliliy va kritik yondashib javob berishlari kerak.

Mazkur kurs ishini bajarilishi quyida keltirilgan menejerlarga qo'yilgan talablarga muvofiq kelishi lozim:

1. Yuksak maqsadlarni qo'ya bilish, sog'lom hayot tarzini olib borish, yaxshi jismoniy sog'-salomatlikka ega bo'lish, doimiy ravishda o'z ustida ishlab borish, o'z fikrlarini aniq va maqsadga intiluvchan bo'lish, did bilan kiyinish.

2. Firmani strategik rivojlanishini ilmiy asosda prognozlashtirish, ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy ish rejasini ishlab chiqish, o'z fikrlarni og'zaki va yozma ifoda qila olish.

3. Jamoa maqsadlarini ifoda qila bilish, insonlarni tasnifiy belgilari va xususiyatlarini bila olish hamda o'zini baholay olish, jamoada sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit uchun sharoit yaratib berish, mojaroli holatlarini idora etish.

4. Korxonani texnik va texnologik xususiyatlarini bilish, sotib olinayotgan yoki ishlab chiqarilayotgan ob'ektni ishlash tamoyillarini aniqlash, ishlab chiqarishni standartlashtirish, ixtisoslashtirish va avtomatlashtirish bo'yicha savollarni anglab idrok eta olish.

5. Noaniqlik paytida bo'layotgan jarayonni tahlil qila olish, iqtisodiy baho berish va qaror qabul qilish.

6. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'zini va jamoa faoliyatini tahlil qila olishi, mavjud resurslarni taqsimotini o'z zimmasiga olishi, boshqaruv bo'limlari

bo'yicha mas'uliyat va javobgarliklarni taqsimlashni bilishi, xodimlarni rag'batlantira olish va boshqalar.

2. TAKLIF ETILAYOTGAN KURS ISHI MAVZULARI VA UNI BAJARISH TARTIBI

Kurs ishining mavzusi ob'ekti bo'lib talabalar o'quv-amaliyotini o'tadigan korxonalarning ishlab chiqarish bo'linmalarini va boshqaruv apparati bo'lisi mumkin. Kurs ishi tegishli adabiyotlarda berilgan chet el ilg'or korxonalarining batafsil keng ma'lumotlari asosida ham bajarilishi mumkin. Talabalar tomonidan tanlab olingan mavzu tegishli topshiriq bilan biriktirilib, kurs ishi rahbari tomonidan imzolanadi (1-ilovaga qarang).

2.1. KURS ISHI OB'EKTI SIFATIDA TAKLIF ETILAYOTGAN MAVZULAR RO'YXATI

- 1.Menejment nazariyasi va tajribasining rivojlanishi
- 2.Turli mulkchilik sharoitida boshqarish tizimi va tajribasini rivojlanish.
- 3.O'zbekistonda boshqaruv nazariyasining xususiyatlari
- 4.Menejmentga sistemali-vaziyatli yondoshuv
- 5.Sistemalar haqida tushuncha va uning xossalari
- 6.Axborotli sistema va uning xususiyatlari.
- 7.Boshqaruvchi sistema va uning "kichik" sistemalari
- 8.Menejmentning kichik funksional sistemalariga tavsif, ularning o'zaro ta'siri
- 9.Menejment tizimida bozor qonunlari.
- 10.Menejment tamoyillari. Boshqarish tamoyillarining tarkibi va mohiyati.
- 11.Menejment funksiyalari va tabaqalanishi.
- 12.Boshqarish mehnat faoliyati jrayoni sifatida
- 13.Boshqarish jarayonlari, bosqichlari va boshqarish tsikllari.
- 14.Menejmentning tashkiliy tuzilishi va uning turlari
- 15.Boshqaruv tashkiliy tuzilishining turlari, ularnnig afzaliklari va kamchiliklari.
- 16.Bozor munosabatlari sharoitida boshqaruvnnig tashkiliy tuzilishini isloh qilish vqa rivojlantirish.
- 17.Boshqaruv faoliyati yangi shakllarining tashkil topishi va ularnnig samaradorligi.
- 18.Menejment usullari va uning mohiyati.
- 19.Menejment usullarni tajribada qo'llash.
- 20.Boshqaruvni iqtisodiy usuli-bozor iqtisodini samarali yuritish asosi.
- 21.Menejment tizimida menejerlar faoliyatini tashkil etish.
- 22.Bozor sharoitida kadrlar siyosai va mohiyati.
- 23.Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyilining mohiyati.

- 24.Boshqaruv mehnatining mazmuni, xarakteri va xususiyati.
- 25.Zamonaviy menejer –liderning kasb malaka modeli
- 26.Menejmentni axborot bilan ta'minlanishi.
- 27.Bozorni o'rganishda axborot va kommunikatsiyaning ahamiyati.
- 28.Boshqaruv madaniyati va uslubi.
- 29.Nizo va stresslarni boshqarish.
- 30.Korxonani rivojlantirish, uning mohiyati va asosiytavsifi.
- 31.Korxonada marketingni boshqarish.
- 32.Marketing stategiyasi va uning turlari
- 33.Ijtimoiy boshqaruv mohiyati.
- 34.Bozor sharoitida ijtimoiy siyosatning tutgan o'rni.
- 35.Ijtimoiy dastur va unnig menejmentdagi roli.
- 36.Aholini ijtimoiy himoyalash yo'nalishlari.
- 37.Ijtimoiy tadqiqotlar naitjalarini menejmentda qo'llanilishi.
- 38.Menejment samaradorligi va mohiyati.
- 39.Menejment samaradorligi – iqtisodiy kategoriya sifatida.
- 40.Menejment samaradorligini oshirish bozor iqtisodiyotining muhim sharti.
- 41.Boshqarish samaradorligininigmezonlari va ko'rsatkichlari.
- 42.Boshqarish samaradorligin oshirish yo'llari
- 44.Boshqarishning rivojlanish bosqichlari
- 45.Boshqaruv maktablari turlari
- 46.O'rta Osiyoda boshqaruv nazariyasining rivojlanishi.
- 47.Insoniy munosabatlari nazariyasining rivojlanishi.
48. Korxonada ijtimoiy himoyalash masalalarini tashkil etish
- 49.Motivatsiya nazariyasi va unnig mazmuni.
- 50.Kommunikatsiya va uning turlari.
- 51.Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida korxonada boshqaruv faoliyatini tashkil etish.
- 52.Korxonada psixologik muhit yaratishda rahbarning roli.
- 53.Menejmentning iqtisodiy usuli va mohiyati.
54. Boshqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari
- 55.Ishlab chqarishda inson resurslaridan samarali foydalanish yo'llari
- 56.Xodimlarni rejalashtirish va ularni boshqarishda umumiy tamoyillarni qo'llash
- 57.Menejmentda qaror qabul qilish
- 58.Xodimlarni boshqarishda tashkiliy tamoyillarning o'rni va ahamiyati
- 59.Boshqaruv samaradorligini oshirish va baholash uslublari
- 60.Ishlab chiqarish korxonalarida personalni boshqarish

2.2. KURS ISHINI BAJARILISH TARTIBI

Kurs ishini bajarish bosqichlari quyidagilardan tashkil topadi:

- kurs ishi mavzusini tanlash va uni manbaini tayyorlash.

- mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va ish rejasini tuzish;
- aniq ilovalarni ishlab chiqish;
- berilgan takliflar bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisobini tayyorlash;

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kurs ishini quyidagi bo'limlar bo'yicha tayyorlash taklif qilinadi:

- ⇒ Kirish
- ⇒ Asosiy qism (3-4 savolardan iborat).
- ⇒ Xulosa
- ⇒ Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- ⇒ Ilovalar.

Yuqorida ko'rsatilgan kurs ishi bo'limlari quyidagilarni o'z ichida qamrab olishi kerak:

A) Kirish. Bu qismda tanlangan mavzuni bozor iqtisodiyoti sharoitida mohiyati, uni asosi yoritilishi kerak bo'lgan masalalar haqida qisqacha bayonnomani o'z ichida mujassamlashtiradi.

B) Asosiy qism. Bu bo'limda tanlangan mavzuning asosiy mohiyati va uning mag'zini yoritib beruvchi savollarga faqatgina nazariy nuqtai nazaridan emas, balki tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan korxonaning joriy holati tahlili, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari, ilg'or korxona va xorijiy tajriba, boshqalarni o'z ichiga qamrab olishi lozim.

V) Xulosa. Bu bo'limda yuqorida qayd etilgan asosiy qismda qilingan tahlil asosida xulosalar va kiritilgan tadbirlar bo'yicha olingan iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ham ko'rsatib o'tilishi lozim.

G) Foydalanilgan adabiyotlar. Bu ro'yxat bibliografik talablar asosida keltirilishi kerak. Agarda, adabiyotdan olingan fikr yoki statistik ma'lumotlar biror bir manbadan olingan bo'lsa, tushuntirish haqida ro'yxatda keltirilgan ketma-ketlik raqami orqali ko'rsatib o'tilishi lozim.

D) Ilova. Kurs ishini bajarish uchun asos bo'lib xizmat qilgan me'yoriy statistik ma'lumotlar majsuasini ko'rsatib o'tiladi.

Kurs ishida tahlil qilinayotgan ma'lumotlarni yanada ishonchliroq va mantiqiy ifodalash maqsadida turli xil diagramma, chizma, jadvallarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

3. KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISH

Mazkur fan bo'yicha kurs ishi quyidagi talablar asosida rasmiylashtirib, tushuntirish xati bilan biriktirladi.

Kurs ishi xajmi cheklanmaydi, ammo 30-40 varaq atrofida bo'lishi tavsiya etiladi.

Kurs ishi fonetik lingvistik va mantiqiy ravishda xatosiz yozilishi lozim.

Umumiyl ishni bir xil rangda (binafsha yoki qora) bajarilishi lozim. Kurs ishining boshida talaba, ish rahbarlari va kafedra mudiri tomonidan imzolangan vazifa varaqasi tikilgan bo'lishi shart (1-ilovaga qarang).

Ilovalarga chiqarilayotgan ma'lumotlar muallifning hohishiga qarab belgilanadi.

KURS ISHINI HIMOYA QILISH TARTIBI

Kurs ishini himoya qilish muddati o'quv rejasida ko'rsatilgan jadval asosida belgilanadi. Kurs ishi himoyadan 10 kun oldin rahbarga tekshirish uchun topshiriladi. Tekshiruvdan so'ng kurs ishi taqrizga beriladi. Taqriz tegishli kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan ilovada ko'rsatilgan blanka asosida yoziladi, so'ng tavsiya qilingan holda himoyaga qo'yiladi.

Kurs ishi himoyasi kafedra tomonidan tashkil etilgan komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda fan bo'yicha ma'ruzachi va amaliyot o'qituvchilari qatnashadilar.

Kurs ishi himoyasida talaba aniq va ravshan tarzda kurs ishining mazmunini yoritib berishi kerak. Berilgan savollarga to'liq javob va izohlar berishi lozim.

T A S D I Q L A Y M A N
Menejment kafedrasi o'qituvchisi

KURS ISHIGA BERILGAN VAZIFA

Mavzu: _____

Asosiy ko'rsatmalar: _____

Ish rejasi: _____

1. _____

2. _____

3. _____

Qabul qildim: _____ **guruuh talabasi** _____

Rahbar: _____
(o'qituvchining ilmiy darajasi va f.i.sh.)

(imzo)

Muddati «____» 201__ yil.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAY'RUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK QURILISH INSTITUTI

"MUHANDISLIK" FAKULTETI

"MENEJMENT" KAFEDRASI

«MENEJMENT»

fani bo'yicha tayyorlagan

KURS ISHI

Tayyorladi: _____ guruh talabasi_____

Rahbar: _____
(F.I.O)

Lavozimi: _____

_____ fakulteti
_____ mutaxassisligi
kurs _____ guruh talabasi _____ ning

_____ mavzusida bajargan kurs ishiga berilgan

TAQRIZ

Kurs ishi rejasi: _____

Kurs ishi mazmuni: _____

Grafik ma'lumot: _____

Kurs ishi kamchiliklari: _____

Xulosa _____

«____» 200 ____ y.

Taqrizchi: _____
(taqrizchining lavozimi, ismi va familiyasi)

_____ (imzo)

Kurs ishini bajarishda foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son
2. Mirziyoev.SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent:O'zbekiston, 2017 yil.
3. Ricky W.Griffin. Fundamental of management. 8 th Edition. 2015.-510 r.
4. David Boddy.Management an Introduction. 2016 y. 714 p.
5. Yo'ldoshev N.Q., Nabokov V.I. "Menejment nazariyasi". Darlik. T.TDIU, 2013.- 433 b.
6. Kucharov A.S. Menejment . O`quv qo'llanma. T.:TDIU, 2009 y. -120 b.
7. SHarifxodjaev M. Menejment.Darslik.T.: O'qituvchi, 2002.-464 b.
8. Meskon M.X. i dr. Osnovы menedjmenta. 3- ye izdanie: Per. s angl.- M.: OOO «I.D. Vilbyams», 2008.- 672 s.
9. Richard L.Daft. Management. Ninth edition.2010. y. 699 p.
- 10.Gluxov V.V. Menedjment: Uchebnik. 3- izd.- SPb Piter, 2009.- 608. 2 ekz.
11. Vesnin V.R. Menedjment v sxemax i opredeleniyax: Uchebnoe posobie. – M.: Prospekt, 2009. – 120 s.
12. Yo'ldoshev N.Q., Azlarova M.M., Xo'djamuratova G. Y. "Menejment va marketing asoslari": (O'quv qo'llanma). - T.: TDIU, 2012 y. -258 b.

Internet saytlari

- www.economics.ru
- www.ved.ru
- www.ser.uz
- www.uza.uz
- www.ifmr.uz
- www.Lex.uz
- www.ziyonet.uz
- www.managment.ru